

MChJLAR UCHUN MUQOBIL MOLIYAVIY RESURLARNI JALB ETISHNING HUQUQIY MASALALARI-BIZNES-ANGELLAR INSTITUTI

Muallif: Dilfuza Miradxamova Soliddin qizi

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

Mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Mazkur tezis mas'uliyati cheklangan jamiyatlar (MChJlar) tomonidan moliyaviy resurslarni jalb etish amaliyotida bank kreditlarining ustunligi va ushbu modelning cheklangan imkoniyatlarini huquqiy jihatdan tahlil qilishga bag'ishlangan. Xususan, biznes-angellar (business angels) instituti MChJlar uchun muqobil moliyalashtirish manbai sifatida ko'rib chiqiladi hamda uning huquqiy tabiati, afzalliklari va tartibga solish bilan bog'liq muammolari ochib beriladi. Tezisda bank kreditlariga yuqori darajada tayanish iqtisodiy xavflarni kuchaytirishi, kichik va o'rta biznes subyektlarining rivojlanishiga to'sqinlik qilishi asoslanadi. Qiyosiy-huquqiy yondashuv asosida Yevropa Ittifoqi tajribasi, xususan, biznes-angellar instituti rivojlangan yurisdiksiyalardagi normativ yondashuvlar tahlil qilinadi hamda O'zbekiston qonunchiligini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-huquqiy takliflar ilgari suriladi.

Kalit so'zlar: mas'uliyati cheklangan jamiyat, muqobil moliyalashtirish, biznes-angel, investitsiya shartnomasi, korporativ huquq, bank krediti, investor huquqlari.

Kirish

Hozirgi iqtisodiy sharoitda mas'uliyati cheklangan jamiyatlar faoliyatining barqarorligi va raqobatbardoshligi ko'p jihatdan moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlari bilan belgilanadi. O'zbekiston Respublikasida MChJlar uchun moliyalashtirishning asosiy manbai sifatida bank kreditlari ustun mavqega ega bo'lib qolmoqda. Biroq bank kreditlariga yuqori darajada tayanish foiz yukining oshishi, garov talablari va moliyaviy xavflarning kuchayishi bilan bog'liq muammolarni keltirib chiqaradi. Shu bois MChJlar uchun muqobil moliyaviy resurslarni jalb etishning huquqiy mexanizmlarini tadqiq etish alohida dolzarblik kasb etadi.

Mazkur tezisda muqobil moliyalashtirish shakllaridan biri bo'lgan biznes-angellar instituti huquqiy nuqtayi nazardan o'rganiladi. Biznes-angellar erta bosqichdagi MChJlarga shaxsiy kapitalini kirituvchi, evaziga jamiyat ulushiga ega bo'luvchi hamda ko'pincha boshqaruv va maslahat berish jarayonlarida ishtirok etuvchi investorlar hisoblanadi.

MChJlarni moliyalashtirishda bank kreditlari ustunligining huquqiy sabablari

O'zbekiston amaliyotida MChJlarni moliyalashtirishda bank kreditlarining ustunligi bir qator huquqiy va institutsional omillar bilan izohlanadi. Avvalo, kapital bozorlari va muqobil moliyalashtirish institutlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi bank kreditlarini de-fakto asosiy moliyaviy instrumentga aylantirgan. Ikkinchidan, biznes-angellar, venchur kapital va kraudfanding kabi moliyalashtirish shakllari bo'yicha maxsus huquqiy tartibga solish mexanizmlarining yo'qligi ushbu institutlardan keng foydalanishga to'sqinlik qilmoqda.

Natijada MChJlar uchun moliyalashtirish manbalari tanlovi cheklanib, tadbirkorlik subyektlari bank sektoriga yuqori darajada qaram bo'lib qolmoqda. Bu holat kichik biznes va startaplar rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Biznes-angellar institutining huquqiy tabiati va afzalliklari

Biznes-angellar instituti bank kreditlariga nisbatan moslashuvchan va iqtisodiy jihatdan samarali muqobil moliyalashtirish mexanizmi hisoblanadi. Huquqiy jihatdan biznes-angel moliyalashtirishi quyidagi asosiy shakllarda namoyon bo'ladi:

- MChJ ustav kapitaliga ulush sifatida investitsiya kiritish;
- konvertatsiya qilinadigan qarz (qarzni keyinchalik ulushga aylantirish);
- ishtirokchilar kelishuvi asosida boshqaruv va nazorat huquqlarini belgilash.

Mazkur modelning asosiy afzalligi shundaki, u MChJlarga moliyaviy resurslar bilan birga boshqaruv tajribasi, biznes aloqalari va strategik maslahatlarni ham jalb etish

imkonini beradi. Shu bilan birga, foizli kredit majburiyatlarining yo‘qligi MChJlarning moliyaviy yukini kamaytiradi.

Qiyosiy-huquqiy jihat va normativ muammolar

Yevropa Ittifoqi davlatlarida biznes-angellar instituti muqobil moliyalashtirishning muhim elementi sifatida huquqiy jihatdan tan olingan va institutsionallashtirilgan. Ushbu yurisdiksiyalarda biznes-angellar faoliyati korporativ huquq, investitsiya huquqi hamda soliq imtiyozlari orqali qo‘llab-quvvatlanadi. Aksincha, O‘zbekiston qonunchiligida biznes-angellar instituti alohida huquqiy institut sifatida mustahkamlanmagan bo‘lib, amaliyotda bunday investitsiyalar ko‘pincha nomlanmagan shartnomalar orqali rasmiylashtiriladi.

Bu holat investor huquqlarining himoyasi, korporativ boshqaruv shaffofligi va nizolarni hal etish mexanizmlarida huquqiy noaniqliklarni yuzaga keltiradi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, MChJlar uchun bank kreditlariga muqobil moliyalashtirish manbai sifatida biznes-angellar instituti muhim huquqiy va iqtisodiy ahamiyatga ega. Ushbu institutni huquqiy jihatdan tartibga solish MChJlarning moliyaviy barqarorligini oshirish, investitsiya muhitini yaxshilash va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiladi. Shu munosabat bilan, O‘zbekiston qonunchiligida biznes-angel investitsiyalarining huquqiy asoslarini belgilash, ulushga kirish va chiqish mexanizmlarini aniqlashtirish hamda ishtirokchilar kelishuvlarini normativ darajada mustahkamlash maqsadga muvofiq hisoblanadi.